



ko'rgazmalari bilan bir qatorda ikki tomonlama bitimlarning shakllari ham keng qo'llanilmoqda. Bular quyidagilar:

- barbet- tovarlarni to'g'ridan-to'g'ri, pul ishtirokisiz bir-biriga ayriboshlash;
- eksport qiluvchilar tomonidan yetkazib berilgan qiymatining bir qismiga import tovarlarni xarid qilish;
- texnikaning yangi modellarini sotib olishda eskirgan modellarini dastlab sotish;
- kompetatsion bitimlar;
- kliring operatsiyalardan tashkil topgan bo'ladi.

Jahon bozorining bir qismini valyuta bozori tashkil etadi. Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga ya'ni tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar qarzlari va subsidiyalar oqimi, ilmiy-texnikaviy mahsulotlarni ayriboshlash, turizm va boshqa sohalarning xizmat qilishi bilan bog'liq munosabatlar iqtisodiy munosabatlar deb ataladi. Bu o'zaro ta'sirlar valyuta operatsiyalari, transchegaraviy kreditlash va qarz bo'lish hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki va boshqa bir qator tashkilotlar valyuta tizimini boshqaradi. Shu sababli Xalqaro moliya institutlari shu tashkilotlarni ishlarini o'rganadi. Xalqaro valyuta-kredit esa valyuta kursini aniqlash, kapital oqimi va xalqaro qarzlarning masalalarini o'rganib yechimlar izlaydi. Bu muammolar esa global va murakkab bo'lganligi uchun iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu sababli Xalqaro valyuta fondi tashkilotga a'zo mamlakatlarning valyuta kursi va to'lov balanslarini tartibga solib turadi.

Birinchi AQSh dollari (USD) dunyodagi eng kuchli valyutalardan biridir. Bu Qo'shma Shtatlar va boshqa bir qancha mamlakatlarning rasmiy pul birligi hisoblanadi. Ammo, keyingi yillarda mamlakatning xalqaro valyuta-kredit munosabatlari sohasida ayrim muammolar, salbiy trendlar yuzaga keldi.

Xususan, tashqi savdo aylanmasi saldosining kamayishi kuzatilmoqda. Bir necha yillar davomida tashqi savdo aylanmasi 3487,6 mln. AQSH dollarini tashkil

qilgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 880,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Bundan tashqari, xalqaro kreditlardan samarali foydalanish

bilan bog'liq bo'lgan muammolar mavjud. O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev e'tirof etganlaridek, "eng yomoni, istiqbolli yirik loyihalarni belgilash va amalga oshirishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilganligi, xorijiy kreditlar samarasiz ishlarga sarflangani iqtisodiyot rivojiga xalaqit bermoqda. Masalan, mamlakatimizda 25 yil davomida olingan kreditlarning aksariyati yetarlicha iqtisodiy samara bermaganini turli ekspert va mutaxassislar ochiq tan olmoqda".

Shuningdek, dunyo miqyosida xalqaro valyuta-kredit munosabatlari sohasida jiddiy, olamshumul o'zgarishlar yuz bermoqda.

2022-yilning yakuniy oylar hisobiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi 50miliard dollarga yetdi. Bu esa 2021-yilning yakuniy oylar hisobiga nisbatan 7.8 milliard dollarga ya'ni 18.6 foizga oshdi. Tashqi savdoning umumiy hajmida eksport ulushi 19.3miliard dollarni ya'ni 16.9%ni, import esa 30.7dollarni



ya'ni 20.4foizni tashkil etdi. Bunday eng yuqori ko'rsatkichni Xitoy davlati 2.2milliard dollarni, Rossiya davlati 2.5milliard dollarni, Qozog'iston davlati 1.1milliard dollarni va Turkiya davlati esa 1.3milliard dollarda eksport qilgan davlatlar hisoblanadi. Eng kam eksport qilgan davlatlar : Janubiy Koreya Respublikasi 41.6 million dollar va Hindiston davlati 29.3million dollarda eksport qilishgan. Eng kam import esa Afg'oniston bilan 7.3million dollarda import bo'lgan.

XXR	Rossiya Federatsiyasi	Qozog'iston	Turkiya	Koreya Respublikasi
TSA – 7 501,1	TSA – 7 439,0	TSA – 3 721,2	TSA – 2 691,5	TSA – 1 976,7
Eksport: 2 240,1 Import: 5 260,9	Eksport: 2 478,3 Import: 4 960,6	Eksport : 1 140,1 Import: 2 581,1	Eksport : 1 287,8 Import: 1 403,8	Eksport : 41,6 Import: 1 935,1
18,7%	18,6%	9,3%	6,7%	5,1%
Qirg'iz Respublikasi	Germaniya	Turkmaniston	Afg'oniston	Hindiston
TSA – 989,9	TSA – 870,4	TSA – 614,1	TSA – 586,5	TSA – 559,3
Eksport : 772,8 Import: 217,1	Eksport : 81,0 Import: 789,4	Eksport : 170,6 Import: 443,5	Eksport : 579,2 Import : 7,3	Eksport : 29,3 Import : 530,0
2,5%	2,2%	1,5%	1,5%	1,4%

Asosan kapitalga kreditlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatini ko'paytirish va biznesni kengaytirish uchun xorijiy valyuta ko'rinishida taqdim etiladi.

Asosiy kapitalga kredit olish doirasida olish mumkin bo'lgan holatlar quyidagicha:

- turli maqsadlar uchun uskunalari;
- ko'chmas mulk;
- inventar;

- biznesda ishlatiladigan boshqa vositalar uchun beriladi. Kredit miqdori- Milliy valyutada 1milliard so'mgacha;

Xorijiy valyutada -100 ming AQSh dollarigacha yoki boshqa valyuta ekvivalentida beriladi.

Dunyo bo'yicha iqtisodiyoti eng yaxshi rivojlangan davlat deb AQSH e'tirof etilmoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda hozir kunda Qo'shma Shtatlar yalpi ichki mahsuloti 21 trillion dollardan ortiq. AQSHning iqtisodiyoti aralash iqtisodiyot bo'lib, asosan, xususiy va davlat sektorlari muhim rol o'ynaydi. Xususiy sektorda xizmat ko'rsatish sohalaridan sog'liqni saqlash, moliya va chakana savdo kabi sohalar ustunlik



qiladi. Davlat sektorida esa ta'lim, mudofaa va huquqiy muhofaza qilish kabi sohalar o'sib bormoqda. AQSH iqtisodiyotining asosiy o'sishiga sabab bu - aholi ishsizlikning darajasi past ekanligi va qimmatli qog'ozlar bozori barqarorligi sababli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Iqtisodiyotining rivojlanishining asosiy sabablaridan yana biri bu valyuta aylanishining yuqori darajada ekanligi.

Valyuta Amerikaning tarixdan rivojlanishining sababi bo'lgan. Chunki Amerika valyutani qimmatli metallarga ayriboshlash orqali iqtisodiyotini rivojlantirgan. Iqtisodiyotni rivojlanishida Yalpi ichki mahsulot birinchi o'rinda bo'lsa xorijiy valyutaning tez-tez ayriboshlash orqali ham iqtisodiyot rivojlantiradi.

Xulosa: Xalqaro savdoda ishtirok etish har bir mamlakat uchun milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan himoya qilish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi. Bu vazifa mamlakatlarning savdo siyosati orqali amalga oshadi. Jahon amaliyotida bu siyosatning proteksionizm (tashqi ta'sirdan himoyalash) va fritrederlik (savdoga to'liq erkinlik berish) kabi shakllari keng tarqalgan. Iqtisodiy bitimlar - qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlar. Har qanday bitim ikki tomoniga ega bo'ladi va shu sababli to'lov balansida ikki tomonlama yozuv tartibi - biga rioya qilinadi. Har bir bitim to'lov balansining debet va kredit qismlarida o'z ifodasini topadi. Iqtisodiyot subyektlarining davlat va Markaziy bank siyosatiga ishonchsizligi to'lov balansi inqirozini chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi. Milliy valyuta qadrsizlanishining kutilishi chet el valyutalari - ga chayqovchilikka qaratilgan talabni rag'batlantiradi. Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzar va subsidiyalar oqimi, fan-texnika yutuqlarini ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar xalqaro valyuta-kredit munosabatlari deb ataladi. U pulning xalqaro to'lov munosabatida amal qilish jarayonida vujudga keladi. Har qanday valyuta tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri valyuta kursi hisoblanadi. Valyuta kursi bir mamlakat valyutasi - ning boshqa mamlakat valyutasidagi ifodalanishini ko'rsatadi. Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tushuntirish, xarid qilish layoqatining paritet (turli mamlakatlar pul birliklari qiymatining bir-biriga nisbati) nazariyasi yordamida beriladi. Bu nazariyaga ko'ra, kurslar nisbatlarini aniqlash uchun ikki mamlakat iste'molchilik tovarlari «savati» narxlarini taqqoslash talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

iqtisodiyot nazariyasi, <https://review.uz/uz/post/infografika-vneshnyaya-torgovlya-uzbekistana-za-yanvar-dekabr-2022-goda>,
<https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/23/commerce/>